XALQ DEPUTATLARI URGANCH TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 31-iyul VI-93-83-12-173-K/24 Urganch tumani

Urganch tumanidagi ayrim qabristonlarga nom berish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi qonunining 10-moddasi, 2012-yil 16-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 295-son qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasining 2024-yil 30-apreldagi 19-1265-son murojaatnomasi va unda qayd etilgan tuman hokimiligining ayrim nomsiz qabristonlarni nomlash to‘g‘risidagi bayonnomasini ko‘rib chiqib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning 6- va 24- moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasining 2024-yil 30-apreldagi 248-son bayonnomasi va tuman hokimining tumandagi ayrim qabristonlarni nomlash to‘g‘risidagi taklifi ma’qullansin.

2. Tumandagi geografik obyektlar nomlari **ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman statistika bo‘limi (J.Bekchanov), tuman obodonlashtirish boshqarmasi (A.Axmedov) tuman hokimligi bilan birgalikda yangi nomlangan qabristonlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va elektron bazani shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni amalga oshirsin.

4. Tuman hokimining o‘rinbosari, tuman geografik obyektlarga nom berish to‘g‘risidagi masalalari bo‘yicha tuman komissiyasi raisi o‘rinbosari (O‘.Sultanov)ga:

bir hafta muddatda tumandagi qabristonlarning yangi nomlarini aholi o‘rtasida keng targ‘ib etish, belgilangan tartibda zamonaviy ko‘rinishda, lotin yozuvida, peshlavhalarga yozib o‘rnatish ishlarini tashkil etish vazifasi yuklatilsin.

5. Tuman hokimligi huzuridagi geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasi a’zolari, mahallalar uyushmasi tuman bo‘limi hamda mahalla fuqarolar yig‘ini raislariga:

bir hafta muddatda tumandagi qabristonlarning yangi nomlari bo‘yicha aholi o‘rtasida keng targ‘ibot ishlarini amalga oshirish va tegishli chora-tadbirlar belgilansin.

6. Mazkur qaror bilan bog‘liq hujjatlar geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasiga taqdim etilsin.

7. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (R.Sabirov) qaror ijrosini moliyalashtirish bo‘yicha 3 kun muddatda tuman hokimligiga taklif kiritsin.

8. Mazkur qaror “Urganch haqiqati” gazetasida rasman e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

9. Qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari, geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasi raisi o‘rinbosari (O‘.Sultanov) hamda xalq deputatlari tuman Kengashining ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi

SULTANOV
GAYRATJON
PO‘LATOVICH

Xalq deputatlari Urganch tumani
Kengashining
2024-yil 31-iyuldagi
VI-93-83-12-173-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Urganch tumanidagi qabristonlar
RO‘YXATI

№	Geografik obyekt turi	Joylashgan manzili	Geografik obyekt nomi (“Ekspert komissiyasining xulosasiga asosan)
1.	Qabriston	Killavut mahallasi	**Ullimullo**
2.	Qabriston	Boqaylar mahallasi	**Nurmuhammad Saidbobo**
3.	Qabriston	Yuqoriovul mahallasi	**Oygaldibobo**
4.	Qabriston	Anjirchi mahallasi	**Iznistarbobo**
5.	Qabriston	Uyshin mahallasi	**Qizilota**
6.	Qabriston	G‘alaba mahallasi	**Tuzloqota**
7.	Qabriston	Obod mahallasi	**Mullo G‘oyibjon**
8.	Qabriston	Yangi O‘rtabog‘ mahallasi	**Shayx Mustafo**
9.	Qabriston	Shohidonlar mahallasi	**Qirq Amatbobo**
10.	Qabriston	Yangi O‘rtabog‘ mahallasi	**Muhammadaminxo‘ja**
11.	Qabriston	Oyoqbog‘ mahallasi	**Suyush Maqsimbobo**
12.	Qabriston	Ravot mahallasi	**Nakrachbobo**
13.	Qabriston	Qo‘ng‘irot mahallasi	**Hazrati G‘oyibjonota**
14.	Qabriston	Zargarlar mahallasi	**Qaribobo**
15.	Qabriston	Chakkako‘li mahallasi	**MuhammadSharif Eshonbobo**
16.	Qabriston	Uchko‘prik mahallasi	**Sulton Hubbi g‘oyibota**
17.	Qabriston	O‘rta Do‘rman mahallasi	**Otashix**
18.	Qabriston	O‘rta Do‘rman mahallasi	**Ukkosha ibn Mihsan**
19.	Qabriston	Oyoqbog‘ mahallasi	**Yuqori G‘oyibjonbobo**
20.	Qabriston	Bog‘dorchi mahallasi	**Sirojiddin Mahsum**